

CAUSES AND FACTORS OF VIRTUALIZATION IN THE LIFE OF YOUTH

Urokov Javlonkhon Kamol oglu

Tashkent State University named after Nizami

Pedagogical University, Faculty of Military Education

Note: In this article, we will talk about the virtual world (enternit), which is now occupying the whole world like a spider's web, filling the minds of the younger generation with iodine concepts, its harmful effects and problems. There is a big difference between real life and virtual life today. In addition to educating the young people who are the creators of each of our futures, we think about how they receive information using the Internet, the virtual world, how they use it, and the factors that influence the upbringing of young people.

Keywords: Virtualization, computer, games, child, neglect, indifference, family, problems in upbringing, Odnaklassic.ru, Telegram

YOSHLAR HAYOTIDA VIRTUALLASHUV SABABLARI VA OMILLARI

O'roqov Javlonxon Kamol og'li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat

Pedagogika universiteti Harbiy ta'lif fakulteti

Izoh: Ushbu maqolada biz hozirgi kunda o'rgimchak to'ridek butun dunyoni egallab borayotgan, yosh ovlodning ongini yod tushunchalar bilan to'lditayotgan virtual olam(enternit) haqida uning zararli oqibatlari va muammolarni hal etish haqida gaplashamiz. Bugungi kunda haqiqiy hayot bilan va virtual hayot o'rtasida juda katta farq bor. Har bir kelajagimiz bunyodkori bo'lgan yoshlarga berilayotgan tarbiya bilan bir qatorda ularning entirnitedan, virtual olamdan foydalanim qanday ma'lumot olayotgani, qay tarzda foydalanayotgani va yoshlarni tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar haqida fikir yuritamiz.

Kalit so'zlar: Virtuallashuv, kompyuter, o'yinlar, bola , e'tiborsizlik, loqaydlik,oila, tarbiyadagi muammolar, Odnaklassic.ru ,Telegram.

Hozirgi rivojlangan hamda har onda takomillashib borayotgan jamiyatda yashar ekanmiz bugungi kundagi o'zgarishlar, insonlar uchun yaratilgan qulay shart sharoitlarni ko'rib mana shunday zamonda yashayotganidan ko'ngling quvonchga to'ladi. Atrofimizga e'tibor bilan qaraydigan bo'lsak inson o'zini o'zligini topishi uchun harakat qilishi mehnat qilishi o'z ustida ishlashi lozimligini tushunib yetadi. Atrofimizda yashayotgan insonlarga bir nazar solib ko'ring-chi? Hamma ham mana shu tinch osuda hayotni qadriga yetyaptimi? Insonlar real hayotda yashayaptimi? O'zligini o'z o'rnini haqiqiy jamiyatda topa olyaptimi?-degan savollar insonni o'yga to'ldiradi.

Hozirgi kunda ayniqa yoshlar ongida real dunyodan tashqari "Virtual dunyo" ham paydo bo'lib bormoqda. Virtual dunyo qanday dunyo? Virtual dunyo – reallikdan, haqiqiy olamdan uzoq bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qilinadigan makon joy.

Telefonlar, kompyuterlarsiz biz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Mana shu vositalardan hamma ham to'g'ri foydalana olmayapti. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak virtual borliq insonlarni o'z domiga tortmoqda. Ming afsuski mana shunday virtual dunyo asirlarining ko'pchiligi yoshlardir. Bunga sabab nima?

Bolalar avvalari "Menga koptok yoki qo'g'irchoq olib bering" deb xarxasha qilishsa, hozirgi bolalar "Menga yangi rusumli telefon, yangi kompyuter o'yinini olib berasiz" deb ota-onasidan talab qilmoqda.

Bundan 10 yoki 15 yil oldin onalarimiz bolasi yig'laganda alla aytib berib ovuntirar edi. Hozirda esa hali 1 yoshga ham to'lмаган болага ham telefon berib uni ovutishga harakat qilmoqdamiz. Bola sal yig'lasa birdaniga "Senga telefon beraman" desa darrov jim bo'lib qolmoqda. Buning oqibatida esa dunyoga endi kelgan yosh bola yaqinlariga ota-onasiga mehr berish o'rniga bor mehrini telefonga berib qo'ymoqda. Mana shunday yosligidan dunyoga yaqinlariga emas boshqa bir qandaydir vositaga mehr qo'ygan boladan qanday qilib mehr oqibat kutish mumkin.

Inson butun hayoti davomidagi 70 % ma'lumotni 7 yoshigacha bo'lgan davrda oladi. Biz mana shunday muhim bo'lgan davrda bolaga dunyo borliq haqida to'gri ma'lumotni yetkazib bera olmoqdamizmi? Bola ota-onasidan yaqinlaridan olishi kerak bo'lgan ma'lumotni ijtimoiy tarmoqlardan olmoqda.

Turli xildagi kompyuter o'yinlari bolaning qalbini aqlini egallab bormoqda. Bu o'yinlar ta'sirida atrofdagilarga e'tiborsizlik, bepisandlik, loqaydlik, tajovuzkorlik, behurmatlik, o'zligini anglamaslik, qilayotgan ishiga javob berolmaslik virtual olamga tobelik shakllanib bormoqda. Bolani biz yangi toza oppoq qog'oz deb bilsak mana shu qog'ozni faqat eng yaxshi so'zlar bilan bezashimiz go'zal xush axloqli qilib tarbiyalash bizning birchimizdir. Lekin mana bunday virtuallahib borayotgan zamonda yoshlarni ongini yet g'oyalardan asrash, ularni kitobga oshno qilib ulg'aytirishni ota-onalar chuqur xis qilmog'i lozim.

Bola ham asta sekin katta bo'la boshlar ekan uning dunoyoqarashi ongi ham shunga mos tarzda o'sib boradi. Inson haqiqiy hayot ne'matlaridan bahra olib yashashni o'rganishi lozim. Lekin real hayotdan ajralib dastlab qandaydir o'yinlarga sho'ngib ketsa o'zini o'sha o'yindagi qahramon sifatida ko'ra boshlaydi. Biz faqat kompyuter o'yinlarini aytmoqdamiz. Lekin hozirgi kunda televizordagi multfilmlar ko'rsatuvlar kinolar bolalarni ertachi voyaga yetishlariga sabab bo'layotganini bir tahlil qilish kerak deb o'layman. Uyida kompyuteri yo'q bo'lgan oilalarda albatta televizor bor. Ba'zan bolalar televizor ko'rib vaqtlarini samarasiz o'tkazmoqdalar. Shunchalik tobe bo'lmoqdaki ba'zi bolalar xarxasha qilib yig'lab bo'lsa ham o'ziga kerak bo'lмаган lekin ko'rishni istagan televizordagi ko'rsatuvlarni ko'rmoqdalar yoki oxirgi rusumdag'i telefonlarni ham ota-onasiga oldirayotganining guvohi bo'lamiz. Biz bolamizga o'z qo'limiz unga ziyon berishi mumkin bo'lgan narsani berib qo'yganimizni sezmaymiz ham.

Hozirgi zamonda kimni qo'liga qaramang eng so'nggi rusumdag'i uyali aloqa vositasini ko'ramiz.

"7 yoshdan 70 yoshgacha" deganlaridek barchaning qo'lida mana shunday aloqa vositalari mayjud. Bunday aloqa vositalari uzog'imizni yaqin qilishga ishlarimizni tezroq bajarashimiz uchun uzoqdagi yaqin insonlarimiz bilan o'zaro muloqtda bo'lishimiz dunyodagi o'zgarishlardan boxabar bo'lishimiz uchun yaratilgan. Lekin ba'zi bir insonlar ayniqsa yoshlarni ushbu vositalardan har doim ham to'gri ma'noda foydalanishmayotgani odamni ranjitadi.

Virtual makonda yashash shunchalar xavfliki bu masalani yuqori darajaga qo'yishimiz lozim. Statistik ma'lumotlarga qaraganda AQSH da oilaviy ajrimlarning har 5 tasidan bittasiga sabab deb ijtimoiy tarmoqlar ko'rsatilar ekan.

Endi aytingchi ertaga bizning mamlakatimizdan ham shu holat takrorlanmasligiga kim kafolat bera oladi.

Oiladek muqaddas qo'rg'onning yo'q bo'lishiga sabab bo'layotgan virtual dunyo bizga kerakmi? Oila o'zaro ishonch bir biriga bo'lgan mehr oqibat asosida yuzaga keladi.

Ozgina bo'lsa ham gumon mana shu oilanining buzilishiga sabab bo'ladi.

Mana shunday illatlarni oldini olish uchun Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev quyidagi so'zlarni aytganlar
"Mana shunday murakkab sharoitda yoshlarni sezgir va ogoh bo'lishi har bir masalada avvalo Vatan manfaatlarini o'ylab ish tutishi zarur. Ilm-marifat va kasb hunarga intilish, oilani muqaddas bilish ma'naviy poklik kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat qadriyatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz millatimizning qonida bo'lib kelgan."

Biz yosh avlod doimo ogoh bo'lishimiz zarur.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilarning 78% ni yoshlarni tashkil qiladi. Mana shunday ijtomoiy tarmoqlardan bir nechtasi Odnaklassic.ru , Telegram, Facebook, Instagram va boshqalar.

Bunday tarmoqlardan o'rinli keragida foydalanish lozim.

Inson o'z xotirasini keraksiz ma'lumotlar bilan to'ldirmasdan kerakli foydali ma'lumotlarni olishga harakat qilish kerakdir. Biz virtual dunyodan uzoqlashib haqiqiy hayotga qaytaylik. Insonga umr bir marta berilar ekan shu hayotni go'zal, sermazmun qilib o'tkazish o'z qo'limizdadir.

Adabiyotlar Ro'yxati:

<https://conferencepublication.com>

1. Sh.M.Mirziyoyev-Erkin Va Farovon Demokratik O'zbekiston Davlatini Birgalikda Barpo Etamiz. 2021-y,197-199 b
2. Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 27-iyunda imzolangan «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni.
3. WWW.ziyonet.uz
4. tdpuz.uz